



Maxsuda NORMAMATOVA,
Zarmed universiteti dosenti, DSc
E-mail:m.normamatova@mail.ru

SamDCHTI professori, f.f.d O.G‘aybullayev taqrizi asosida

IJTIMOY XIZMATLARNI RAQAMLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Аннотация

Ushbu maqola virtuallik tushunchasini ma'nosi yoritilgan. Axborotlashgan jamiyatda virtual obrazlar va virtual reallik ta'siri to'g'risida ilmiy ma'lumot berilgan. Virtuallik tushunchasining tarixiy taraqqiyoti yoritib berilgan. Ijtimoiy hayotni bugungi ko'rinishlari ya'ni virtuallashgan jamiyat, virtual realliklar, virtual obrazlar ularning bugungi kun ijtimoiy jarayonlarga ta'siri masalasi keng bayon etilgan. Bugungi kun yoshlari virtual realliklar bilan to'qnash kelganda uchraydigan to'siqlar haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Virtuallik, bilish, epistemologiya, virtual reallik, virtual obraz, axborot.

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ СОЦИАЛЬНЫХ УСЛУГ

Аннотация

В этой статье рассматривается значение понятия благородства. В информированном обществе предоставляется научная информация о виртуальных образах и воздействии виртуальной реальности. Был освещен исторический прогресс концепции власти. Широко освещается вопрос о влиянии социальной жизни на современные институты, то есть развитое общество, виртуальные реальности, виртуальные образы на социальные процессы сегодняшнего дня. Сегодняшняя молодежь коснулась препятствий, которые приходят на ум, когда речь заходит о столкновении с виртуальными реальностями.

Ключевые слова: Виртуалистика, эпистемология, виртуальное реальность, виртуальной образ, информация.

ACTUAL ISSUES OF DIGITIZATION OF SOCIAL SERVICES

Annotation

This article covers the meaning of the concept of nobility. In an informed society, scientific information is given about virtual images and the impact of virtual reality. Historical progress of the concept of power has been highlighted. The issue of the impact of social life on today's institutions, that is, the developed society, virtual realities, virtual images on the social processes of today is widely described. Today's day youth touched on the obstacles that come to mind when it comes to confronting virtual realities. The question of the impact of the process of turning virtual images into reality on the outlook of people has been studied.

Key words: Virtuality, knowing, epistemology, virtual reality, virtual imagein, information.

Kirish. Jahonning yetakchi ilmiy markazlarida va oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy xizmatlarni virtuallashtirish jamiyatdagi moddiy-madaniy va ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarga bog'liqligini o'rganishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lsada, uning ilmiy-nazariy jihatlari, amaliy ahamiyati masalalari, metodologik mohiyati, ijtimoiy xizmatlarni virtuallashtirishning aktual jihatlari borasidagi tadqiqotlar yetarli emasligi ma'lum bo'lib qolmoqda. Shu bilan birga hozirgi davrda dunyoda virtual ijtimoiy xizmat ko'rsatish jarayoni insoniyatga xos harakat turi sifatida uning xalqaro tajribasi va amal qilishini ta'minlashda umumbashariy, mintaqaviy va milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda abadiyatga daxildor ijtimoiy xizmatni virtuallashtirish mezonlarning jamiyat intellektual taraqqiyotiga hamohangligi, bu sohada ilmiy-tadqiqot ishlarini keng yo'lga qo'yish zaruriy ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda bugungi kunda aholining turli qatlamlariga yoshi, jinsi, ijtimoiy holati, jismoniy salohiyatini inobatga olgan holda amaliy yordam ko'rsatish tizimini virtuallashtirish davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. "Yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish uchun bizga zamonaviy ilm va yana bir bor ilm, tarbiya va yana bir bor tarbiya kerak. Bugungi va ertangi kunimizni, yoshlarimiz taqdirini hal qiladigan yuksak malakali muallim va murabbiylar, professor-o'qituvchilar, haqiqiy ziyolilar kerak"[1]. Shu maqsad yo'lida, rivojlangan mamlakatlarning sinovdan o'tgan tajribalari asosida ijtimoiy xizmatlar tizimini yangicha mexanizmlarini tashkil etish va mamlakatimizda zamonaviy, ijtimoiy xizmatlarni shakllantirish borasidagi tadqiqotlarga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Bundan kelib chiqib, istiqbolli, ijtimoiy xizmatlarini virtuallashtirish qonuniyatlarini nazariy-metodologik tahlil etish obyektiv zaruriyatga aylanmoqda[2].

Adabiyotlar tahlili. Maqolada rus, xorij va respublikamiz olimlari Silayeva, V.L., Davidov A.A., Xabermas Y., Giddens A., Normamatova M.N ijtimoiy xizmatlarning virtuallashuvu va uning tabiati, rivojlanishga tasir etuvchi omillarga oid asarlardan samarali foydalanildi.

Muxokama va natijalar. Ijtimoiy xizmatlarni fuqarolarning barcha ijtimoiy huquq, manfaat va ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, davlat, xususiy va nodavlat sektorlari tomonidan pullik, qisman pullik yoki beg'araz ko'rsatiladigan xizmatlar majmuasidir, deya ta'rif bersak, mohiyat yanada oydinlashadi. Ijtimoiy xizmatlar aholi barcha qatlamlarining munosib turmush tarzini ta'minlash, inson kapitalini rivojlanishiga xizmat qiladi. Ijtimoiy xizmat, avvalo, talab va taklifdan kelib chiqadi. Ijtimoiy xizmatga talabning ko'pligi xizmatlar bozorida yangi subyektlarning vujudga kelishiga olib keladi.

Jamiyatni virtuallashtirish ijtimoiy transformasiyasiga kompleks yondashuv D.V.Ivanov tomonidan ko'rsatilgan bo'lib, uni real narsalar va harakatlarni obrazlar-simulyasiyalar bilan almashtirish sifatida taqdim etadi. Muallif jamiyatni virtuallashtirishni transformasiyalashning uchta asosiy xususiyatini aniqlaydi:

ta'sirning nomoddiyligi (tasvirlangan obyekt haqiqiyga xos effektlarni keltirib chiqaradi);

parametrlarning shartlilikligi (obyektlar sun'iy va o'zgaruvchan);

efemerlik (kirish - chiqish erkinligi uzilish va mavjudlikni qayta tiklash imkoniyatini ta'minlaydi).

Aynan shu xususiyatlar, bizningcha, sosiologiyada internet virtual makonining tadqiqot sohasini belgilaydi. V.L.Silayeva jamiyatni virtuallashtirishning yana bir o'ta muhim xususiyatini, ya'ni uning obyektiv voqelikdan hosil bo'lgan ikkilamchi tabiatini qayd etadi. U virtuallashtirish, birinchi

navbatda, inson faoliyati sohalariga bog'liq bo'lib, aprior tarzda fenomenologik ravishda virtual tabiatga ega, shuning uchun hozirgi virtuallashtirish jarayoni ular uchun ikkinchi darajali[4]. Bu shuni anglatadiki, virtuallashtirish ijtimoiy o'zaro ta'sirning xarakterini sezilarli darajada o'zgartiradi, uni interaktiv tarmoq rejimiga o'tkazadi, o'zaro ta'sir ishtirokchilarining miqdoriy tarkibini kengaytiradi va ularni geografik bog'liqlikdan xalos qiladi. Shu munosabat bilan virtualizatsiya jarayoniga uchragan ijtimoiy o'zaro ta'sirlarning turlari alohida ahamiyatga ega.

Internet eng yangi vositalardan biri sifatida shaxslarning an'anaviy o'zaro ta'sir shakllarini interaktiv rejimga aylantiradi, natijada, kibermaydon ishtirokchilari va jismoniy shaxslarni kundalik hayotining turli xil ijtimoiy amaliyotlari o'rtasida gorizontaal aloqalar shakllanadi. Shu nuqta nazardan, A.A.Davidovning "ijtimoiy tizimlarning kompyutasion nazariyasi" juda ahamiyatlidir. U sun'iy intellektga ega va internetdagi shaxslarning barcha o'zaro munosabatlarida ko'rinmas holda mavjud bo'lgan "sun'iy ijtimoiy agentlar" tushunchasini kiritdi[5]. Bunday "sun'iy ijtimoiy agentlar" sifatida muallif insonning xohishiga binoan tabiat va jamiyatda mavjud bo'lgan xususiyatlar va munosabatlarga taqlid qila oladigan kompyuter modellarini nomlaydi[6]. Shunday qilib, intellektual texnologiyalarning jadal rivojlanishi sharoitida aloqaning yangi turlari, kompyuter texnologiyalari ongni, kundalik hayotni, mehnatni va inson hayotining boshqa sohalari o'zgartiradi. YE.Toffler o'zining "Adaptiv korporatsiya" asarida jamiyatning yangi "superindustrial" tipi vujudga kelayotganini, unda tashkil etishning an'anaviy shakllari o'z samarasini bermasligini qayd etadi[7].

Insonning kundalik hayotini virtuallashtirishda zamonaviy jamiyatdagi inson tez o'zgaruvchan ijtimoiy tuzilmalarda o'z taqdirini o'zi belgilash bilan shug'ullanishga majbur. Zamonaviy insonning o'z taqdirini o'zi belgilash jarayonlariga jamiyatning kundalik hayotini virtuallashtirish sezilarli darajada ta'sir qiladi hamda ijobiy va salbiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Bir tomondan, virtual reallik insonning aks ettirish faoliyatini cheklaydi (ba'zan butunlay yo'q qiladi), uni tanqidiy fikrlash qobiliyatidan mahrum qiladi, uning dunyo va o'zi haqidagi g'oyalari birlashtiradi. Shu bilan birga, ongni virtuallashtirish orqali inson nafaqat ma'lumotni tanqidiy baholash uchun asoslarni, balki kelajakda o'z dunyoqarashini ham yo'qotishi mumkin.

Boshqa tomondan, axborot jamiyatning ham, shaxsning ham rivojlanishida strategik resurs bo'lib, o'z-o'zini takomillashtirish va shaxsiy o'sish uchun yangi imkoniyatlarni taqdim etishga qodir. Nihoyat, axborot texnologiyalari "Men – Boshqa", "Men – Sen" rejimidagi o'zaro aloqalar tarmog'ini kengaytirish orqali inson hayotining muqaddasligini, baxt va baxtga bo'lgan umuminsoniy huquqni e'tirof etishni, o'z-o'zini anglash, kosmopolit birdamlikni rivojlantirishga ko'maklashish va insoniyat mavjudligi muhitini saqlash burchini nazarda tutuvchi yagona etos (axloq) ning paydo bo'lishiga yordam beradi. Y.Xabermas uning asoslarini "oqilona axloqiy munosabatning egalitarizmi (tengligi)" yoki "begonalar orasidagi mavhum vositachi birdamlik"[8] deb tavsiflagan.

Odamlarning onlayn hamjamiyatlarga birlashishi zamonaviy insonning "o'zini o'zi yaratish loyihasi" (E.Giddens)ni amalga oshirish shaklida doimiy ravishda o'z shaxsiyatini izlash bilan bog'liq. "Shaxs bo'lish nafaqat refleksiv harakat qiluvchi, balki shaxs tushunchasiga (o'ziga va boshqalarga nisbatan) ega bo'lishni ham anglatadi"[5]. Boshqacha qilib aytganda, "o'z-o'zini loyihalash" virtual makonda turli xil o'zaro ta'sirlarning paydo bo'lishiga hissa qo'shishi mumkin, bu esa keyinchalik real ijtimoiy rollar, amaliyotlar va institutlarga ta'sir qiladi.

Zamonaviy jamiyatni virtuallashtirishda internetning rolini quyidagicha belgilash mumkin:

internet odamlar o'rtasidagi muloqotda gorizontaal aloqalarni o'rnatish imkonini beradi;

internet axborotni majburlab "tiqishtirmaydi", u faqat ixtiyoriy idrok etish uchun taklif qilinadi;

internet har kimga axborot jarayonining ishtirokchisiga aylanish imkonini beradi;

internet manipulyativ aloqa uchun zarur shart-sharoitlarni yaratmaydi, aksincha ularni yo'qotadi. Savol-javob jarayoni aldosh va manipulyatsiya qilish imkoniyatini bermaydi;

internet (ongni to'sib qo'yuvchi ommaviy axborot vositalaridan farqli o'laroq) insonni ozod qiladi va uni fikrlashga undaydi;

internet, mavhum olomon yoki standart qatlamga muqobil ravishda lokal jamoalarni yaratadi. Ular jamiyat strukturasi o'zgartirib, o'z-o'zini tashkillashtiradi va o'z-o'zini boshqaradi;

internet axborot o'zaro ta'sirining yangi sohasini tashkil etadi, jamoatchilik bilan aloqalarning yangi turlarini paydo bo'lishiga olib keladi.

Umuman, internet aloqalari teskari aloqa elementlarini o'z ichiga oladi va katta masofalar bilan ajratilgan odamlarning jonli, ochiq va keng qamrovli muloqot qilish uchun misli ko'rilmagan imkoniyatlar yaratadi. Internetning faoliyati tufayli etnik, ijtimoiy-siyosiy va boshqa farqlarga qaramay, umumiy manfaatlar, intilishlar, ijtimoiy-madaniy yo'nalishlar bilan birlashtirilgan global, tobora o'sib borayotgan odamlar hamjamiyati shakllanmoqda. Internet shu tariqa integrativ funksiyani bajaradi. Ammo internetning zamonaviy jamiyat hayotiga kirishining asosiy natijasi ijtimoiy muhitni individuallashtirishdir.

Ijtimoiy xizmatlarni virtuallashtirish ijtimoiy amaliyotning barcha jabhalarida istisnosiz tobora ortib borayotgan ishtirokini nafaqat bir mamlakatda, balki butun dunyo jamiyati miqyosida ko'rish mumkin.

Virtual xizmatlar Internetdan tijorat maqsadlarida foydalanishning barcha sohalari qamrab oldi: ta'lim (masofaviy), ko'ngilochar, sayohat, aloqa va xaridlar, to'lov operatsiyalari. Ishbilarmonlik munosabatlarining barcha jihatlarini Internetda amalga oshiriladi: savdo, marketing, moliyaviy tahlil, to'lovlar, xodimlarni qidirish, foydalanuvchilarni qo'llab-quvvatlash va hamkorlik. Elektron tijorat ham yetkazib beruvchilarga, ham mijozlarga foyda keltiradi. Internetning butun dunyo bo'ylab tarqalishi yetkazib beruvchilar uchun savdo bozorining kengayishiga va xarid uchun tanlovga olib keladi.

Elektron virtual xizmatning jozibadorligi aynan yetkazib beruvchining ham, mijozning ham bir vaqtda foyda olishidadir. Yetkazib beruvchi global savdo bozorini, yuqori raqobatbardoshlikni, individual ishlash qobiliyatini, ta'minot zanjirini qisqartirish yoki yo'q qilishni, xarajatlarni kamaytirishni, yangi biznes imkoniyatlarini qo'lga kiritadi.

Mijozlarning afzalliklari: katta tanlov, yuqori sifatli xizmat, tovar va xizmatlarning individual tanlovi, tezkor javob, narxlarni pasaytirish, yangi mahsulot va virtual xizmatlar haqida ma'lumotlar. Elektron biznesda taraflari tomonidan olinadigan imtiyozlar-bitimlar amalga oshiriladigan Internet muhitining o'ziga xosligi bilan bog'liq. Foydalanuvchilar navigatsiya[9] dasturlari yordamida atrof-muhit bilan o'zaro aloqada bo'lishlari, tarkibni o'rganishlari mumkin.

Virtual xizmatlarni elektron biznesda to'lov tizimlarining mavjudligi uchun asos Internet orqali to'lovlarni amalga oshirish xavfsizligini ta'minlash usullari hisoblanadi, chunki tarmoq tashqi kirish uchun butunlay ochiq. Elektron pullar – bu elektron imzo bilan shifrlangan va qalbakilashtirishdan himoyalangan, global axborot tarmoqlari orqali uzatilishi to'lovni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar majmuasidir. Elektron pulning ikki turi mavjud:

- mijozning bankka o'ziga tegishli naqd bo'lmagan pul mablag'larini bir hisob varaqdan boshqasiga o'tkazish uchun bergan elektron topshiriqlari. Bunday buyurtmalar global tarmoqlar orqali uzatiladi va shuning uchun, prinsipial jihatdan, virtual xizmatni elektron pul ta'rifiga kiradi. Bu buyurtmalar ma'lum bir bankda qo'yilgan va jahon valyutalaridan birida o'lchanadigan real depozitlarga asoslanadi. Ushbu tasnif shu turdagi pullar ko'plab mualliflar tomonidan elektron pul deb atalgani uchun berilgan. Bizningcha, bu hodisani elektron to'lov yoki elektron buyurtma deb atash to'g'riroq bo'ladi. Elektron pulni hech qanday real valyutada hisoblash shart emas. Ba'zida bunday pullar tovar bilan ta'minlanadi. Ular global tarmoqda (va faqat unda) "mustaqil hayot" olib borishi yoki "elektron hamyonlarda" saqlanishi va maxsus ko'chma qurilmalar, jumladan, naqd pul kabi kompyuterga ulangan qurilmalar orqali

uzatilishi mumkin. Ulardan birinchisini virtual pul, ikkinchisini esa elektron naqd pul deb atashdi[10].

Ushbu ikki turdagi elektron pullarning umumiy tomoni shundaki, ular xususiy firmalar (Markaziy bank tomonidan nazorat qilinmaydi) va yoki banklar tomonidan chiqariladi va ular naqd yoki naqd bo'lmagan pul yoki tovarlarga qandaydir sxema bo'yicha almashtirilishi mumkin. Bunday pullar Internet orqali tovarlar va xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirishning qulay vositasidir. Iqtisodiyotdagi xizmatlarni virtuallashtirishning birinchi bosqichini haqli ravishda pul tizimining paydo bo'lishi deb hisoblash mumkin. Ijtimoiy xizmatlarni virtuallashtirishning yana bir ko'rinishi virtual ta'limda masofaviy telekommunikasiya orqali o'qitish.

Xulosa. 1. Jamiyat ijtimoiy-madaniy hayotining virtuallashtirish sharoitida inson kapitalini yuksaltirishning muhim shartlaridan biri – “portlash effektini” vujudga keltirish va samaradorlik koeffitsientini yanada oshirish, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari, zamonaviy ta'lim olishning samarali mexanizmlari bilan uyg'unlashtirilgan holatlarda kutilgan natijalarni berishi mumkin.

2. Insonning axborot texnologiyalariga moslashish hodisasi, uning takdirga tan berib yashash uchun kurashdan iborat

passiv harakati natijasi emas, aksincha, axborot madaniyatini yuksaltirish ko'nikmasiga ega bo'lish, o'z ongi va qalbiga ta'sir etuvchi axborot muhitiga ongli, faol munosabati bilan xarakterlanadi.

3. Axborotlashgan jamiyat rivojlanishini belgilovchi bazis munosabatlari majmuasi, insonning mavjud axborotlarni o'zlashtirish maqsadi yo'lidagi uni o'zgartirishdan iborat ijtimoiy faolligining asosi hisoblanadi. Bunday holda, axborot bazisi insoniy munosabatlarning nisbatan mustaqilligi, faqatgina amaliy faoliyatining natijasi emas. Chunki, “jamiyatning virtuallashtirish va insonning axborot madaniyati” majmuasidagi amaliy munosabatlarda o'z ifodasini topadi.

4. Hozirgi davrda axborotlashgan jamiyatni rivojlantirish sohasidagi amaliy munosabatlarni, yoshlarda axborot madaniyatining bevosita birlamchi mavjudlik sharti, deb qarash umuman metodologik jihatdan xatodir. Chunki, axborot madaniyati rivojlanishining nazariy darajasi ijtimoiy-madaniy munosabatlarni passiv idrok yetishiga emas, balki insonning axborotga bo'lgan ehtiyojiga bog'liq bo'lib, axborot munosabatlarni harakatga keltiruvchi mexanizmdir. Bunda virtual reallik fenomeni insonning axborot olishga bo'lgan ma'naviy-madaniy ehtiyojlarini qondirishning texnologik jarayonini ifodalaydi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикасининг Фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида // расмий нашр // Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги. –Тошкент: Адолат, 2017.
2. Мирзиёев Ш.М. 2021 йил 6 ноябрь куни Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Қонунчилик палатаси ва Сенатининг қўшма мажлисида сўзлаган нутқи. –Т.: “Ўзбекистон овози” газетаси. № 223 (479), 2021 йил 7 ноябрь
3. Силаева, В. Л. Подмена реальности как социокультурный механизм виртуализации общества: дисс. ...канд. филос. наук. – М.: МГТУ им. Н.Э.Баумана, 2004. – С. 46.
4. Helm Michel. The Metaphysics of virtual reality // Virtual reality, practice and promise Westport and London. 1991.-P. 27-33:
5. См. подробнее: Давыдов А.А. Компьютационная теория социальных систем // Социс. – 2005. – № 6.
6. Давыдов А.А. О компьютерной теории социальных агентов // Социс. – 2006. – № 2. – С. 20.
7. Хабермас Ю. Расколотый Запад. – М., 2008. – С. 21.
8. Giddens A. Modernity and self-identity: Self and society in the Late Modern Age. – Cambridge: Polity Press, 1991. – P. 53.
9. Нормаматова М.Н. Жамиятни виртуаллаштириш: асосий омиллар ва детерминантлар. // Falsafa va hayot. Xalqaro jurnal. – Тошкент, № SI-2 Август 2021 – Б. 201-210.
10. Корсунцев И.Г. Субъект и виртуальная реальность. М., 1998 г